

**GLOBALLASHGAN SHAROITDA YOSHLARNI
TARBIYALASH MUAMMOLARI****Tojilova Munavvar Maxmudjon qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Pedagogika fanlari doktori, dotsent U.Mirsanov

taqrizi asosida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17985704>**Annotatsiya**

Ushbu maqolada globallashuv tushunchasi, uning jamiyatdagi ta'siri tahlil etilgan, yoshlarni tarbiyalashga oid olimlarning fikrlari, taklif va tavsiyalari o'rganilgan hamda yoshlarni tarbiyalash bo'yicha tadqiqotchilarning ilmiy-metodik manbalari tahlil etilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, ularda milliy-ma'naviy immunitetni mustahkamlash masalalari, bo'lajak pedagoglarni tarbiyalash muammolari, yoshlarni tarbiyalashning konsepsiyasi va mexanizmi keltirilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada yoshlarni tarbiyalash muammolari nazariy jihatdan asoslagan hamda uning yechimlariga oid taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, tarbiya, global tarmoq, ong, tafakkur, axborot texnologiyalar.

Annotation

This article analyzes the concept of globalization, its impact on society, studies the opinions, proposals and recommendations of scientists regarding the education of young people, and analyzes the scientific and methodological sources of researchers on issues of youth education. Also, in the context of globalization, the issues of education of the youth of our country, increasing their spiritual outlook, strengthening national and spiritual immunity, problems of education of future teachers, the concept and mechanism of education of young people are presented. At the same time, this article theoretically substantiates the problems of education of young people, and also gives proposals and recommendations for their solution.

Key words: Globalization, upbringing, global network, consciousness, thinking, information technology.

Аннотация

В данной статье анализируется понятие глобализации, ее влияние на общество, изучаются мнения, предложения и рекомендации ученых относительно образования молодежи, а также анализируются научно-методические источники исследователей по вопросам образования молодежи. Также в условиях глобализации представлены вопросы образования молодежи нашей страны, повышения ее духовного мировоззрения, укрепления национального и духовного иммунитета, проблемы воспитания будущих педагогов, концепция и механизм воспитания молодежи. Вместе с тем, в данной статье теоретически обоснованы проблемы воспитания молодежи, а также даны предложения и рекомендации по их решению. Ключевые слова: Глобализация, воспитание, глобальная сеть, сознание, мышление, информационные технологии.

Hozirda biz bilim va dunyoqarashimizni sezilarli darajada o'zgartirib, butun jahon hamjamiyatining rivojlanish yo'nalishini belgilab beruvchi to'liq globallashuv davrida yashayapmiz.

Bu davrda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlarni, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgani bilan muhim sanaladi.

Axborot sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mazkur sharoitda, global internet tarmog'i turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy va geografik chegaralarga to'siq qo'yib bo'lmaslikni anglatadi. Bunday globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, ularda milliy-ma'naviy immunitetni mustahkamlash orqali nafaqat o'z hayoti, oila a'zolari, Vatani va millati oldidagi, balki atrof-tabi'at, butun kurrai zamin va jami bashariyat oldidagi ma'naviy burch hamda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1].

Zamonaviy dunyoda globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, jumladan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquq, madaniyat, ekologiya, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik va boshqa sohalarini qamrab oladi, bu butun dunyo rivojlanishining kelajakdagi istiqbollari jiddiy tuzatishlar kiritadi [2].

Shuni ta'kidlash kerakki, globallashuv yaqin o'n yillar davomida qizg'in munozaralar mavzusi bo'lib kelgan. Globallashuv jarayonlarini o'rganishga iqtisod, siyosatshunoslik, sotsiologiya, huquq falsafasi va boshqa qator fanlar vakillari jalb etilgan bo'lib, ular globallashuv natijasida jamiyat va davlatda sodir bo'layotgan istiqbolli o'zgarishlarni qayd etadilar. Shu bilan birga, hozirgacha globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalashning yagona kontseptsiyasi va mexanizmi mavjud emas, bu o'z-o'zidan bahsli va pedagoglarni tarbiyalash muammolarni keltirib chiqaradi [2].

Adabiyotlar tahlili. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning turli jihatlariga oid tadqiqotlar A.A.Melkonyan [3],

A.P.Puzanov [4], I.M.Konyayeva [5]larning asarlarida keltirilgan. Ularning fikriga ko'ra, ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning o'zagini tashkil etadi, insonning dunyo bilan munosabatlarini barcha jihatlar va shakllariga foydali ta'sir ko'rsatadi [3].

Madaniyatlararo muloqot muammolari, turli madaniyatlar so'zlovchilari o'rtasidagi subyektiv va guruhlararo munosabatlar tizimiga oid tadqiqotlar M.V.Garayeva [6], L.M.Garayeva [7] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Ammo yosh avlodni tarbiyalash muammosi bo'yicha tadqiqotlarning xilma-xilligi bilan birga, globallashuv sharoitida tarbiya muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

Axborot jamiyatini shakllantirish sharoitida yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotni tahlil qilish quyidagi muammolarni aniqlashga imkon berdi: ma'naviyaxloqiy rivojlanishi uchun axborot jamiyati afzalliklaridan foydalanishga qodir shaxsni tarbiyalash zarurati, madaniyatlararo muloqot makonida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ishlab chiqilmagan metodologiyasi; zamonaviy jamiyatning ta'lim tizimida dunyoni ma'naviy tushunishga va globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalash tizimining rivojlanmaganligi hamda madaniyatlararo muloqot.



Shu munosabat bilan tadqiqot muammosi “Globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyasi tizimi qanday o’zgaradi?” degan savolga javob topishdan iborat. Bu tadqiqot mavzusini tanlashni belgilab berdi: “Globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalash”.

Bu istisnosiz turli iqtisodiy va siyosiy tizimlarga ega mamlakatlarga tegishli hisoblanadi. Ko’pgina mamlakatlar va ularning fuqarolari bir qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko’ra globallashuvga tayyor emaslar. Globallashuv hayotimizning barcha jabhalariga, ya’ni iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarga, oilaga, xavfsizlikka, ijtimoiy hayotga ta’sir qiladi.

Global tarmoqning paydo bo’lishi bilan axborotlarni olish ko’lami kengaymoqda, istalgan ma’lumotni yetarli hajm va miqdorda olish imkoniyatlari paydo bo’lgan. Dunyo yangi texnologiyalarning barqaror o’sishi, iqtisodiy makonlarning yaratilishi, ishlab chiqarish tarkibidagi o’zgarishlar bilan yangi rivojlanishning integratsiya bosqichiga kirdi. Shu bilan birga, yoshlarning hayotga, moddiy va ma’naviy qadriyatlarga, muloqot jarayonlariga munosabati ham o’zgarmiqda [8].

Shu bilan birga yoshlarning faolligi va samaradorligi ortib bormoqda, eng muhimi, ular bu jarayonga samimiy qiziqish bilan qo’shilmoqda. Ko’pchilik yoshlar chet tillarini o’rganishadi, bu esa o’z navbatida til to’siqlarini yo’q qiladi va dunyo tizimidagi istalgan davlat yoshlari bilan muloqot qilish imkonini beradi. Globallashuv yoshlarga, ularning zamonaviy hayotga moslashishiga va nihoyat, ijtimoiylashuvi hamda ongiga ta’sir qiladi [9].

Ushbu masalalar bo’yicha, ya’ni ijtimoiy farovonlikni o’rganish bo’yicha N.V.Bokova, N.N.Simonovich, D.N.Bagretsov, G.N.Simonovichlar tomonidan anketa-so’rov o’tkazgan. Ularning tahliliga ko’ra, yoshlar globallashuv jarayonlarini umuman ma’qullashi va uni zamonaviy jamiyat uchun foyda deb bilishi ma’lum bo’ldi. Yoshlarning fikricha, globallashuv yoshlarga yanada kengroq yo’l ochib, dunyoqarashini kengaytirish, har qanday ma’lumotga ega bo’lish, madaniy darajasini hamda uning moddiy farovonligini oshirish imkonini beradi. N.V.Bokova, N.N.Simonovich,

D.N.Bagretsov, G.N.Simonovichlarning tahliliga ko’ra, respondentlarning 20 foizdan ortig’i globallashuv nima ekanligi va u oddiy insonlar hayotiga qanday ta’sir ko’rsatishi bilan qiziqmaydi va bilmaydi. Ularning o’z hayotlari bor hamda ijtimoiy rivojlanish muammolari va shaxsiy ichki dunyosidan tashqarida sodir bo’layotgan jarayonlar haqida tashvishlanmaydilar [8].

Adabiyotlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, globallashuv – jahon sivilizatsiyasi bugungi taraqqiyotining o’ta muhim tendensiyalaridan biridir. Bu - tizimli xarakterga ega bo’lgan obyektiv jarayondir, ya’ni, u jamiyat hayotining barcha sohalariga o’z ta’sirini o’tkazishi mumkin. Globallashuv natijasida dunyo hamjamiyatining barcha subyektlari bir biri bilan yanada ko’proq bog’lanib boradi. Bu jarayonda ayrim mamlakatlarda kelib chiqadigan muammolar boshqa davlatlarga, albatta, o’z ta’sirini o’tkazadi. Shu bilan bir qatorda, dunyoda iqtisodiy hayotini yagona yondashuv asosida, o’zaro bog’langan holda rivojlantiruvchi subyektlar soni ko’payib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy yoshlar hayotining haqiqiy asosi va mazmuni ularning shaxsiy hayoti, uning muammolari, o’yin-kulgilari va o’z-o’zini rivojlantirishidir. Nisbatan gullab-yashnagan yoshlar liberal-vatanparvarlik qadriyatlariga, ba’zi bir yoshlar esa sotsialistik qadriyatlarga intilishadi [10]. Globallashuv davridagi yangi turmush sharoitlari zamonaviy yoshlar uchun o’z qoidalarini belgilaydi [11].



Yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsata oladigan globallashuvni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri global tarmoqni internet va aloqa texnologiyalarining takomillashuvi hisoblanib, oiladan to'g'ri tashkil etilgan tarbiya, globallashuv jarayoni ijobiy imkoniyatlarini, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalaridan, ilm-fan yutuqlaridan, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishiga xizmat qiladi [12].

Keling, yosh avlodning qadriyatlari va ijtimoiylashuvini tavsiflovchi asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatamiz: ma'naviy madaniyat darajasi pasayadi. Bunga o'zining asl ko'rinishi va maqsadini boshdan kechirgan zamonaviy oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlar yordam beradi [13]; ijtimoiy-madaniy qadriyatlar ierarxiyasi buziladi. Yoshlar uchun ma'naviyat va xalq ijodiyoti, xalq musiqasi, xalq dostonining ahamiyati unutiladi; iste'molchi, ba'zan shavqatsiz bo'lgan ruhsiz shaxs namuna sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Bu tasvir yoshlarga global internet tarmog'i, televizor va video o'yinlar bir xil rol o'ynaydi; yoshlar turli moddiy ne'matlarni sotib olish uchun ajoyib miqdorda mablag' topish va sarflashga qodir bo'lgan muvaffaqiyatli insonlarga e'tibor qaratishadi. Ko'pchilik yoshlar mansab o'sishi va yuqori maosh uchun vaqtini, do'stligini, oilasini qurbon qilishga tayyor; yoshlar uchun zamonamiz qahramoni va namunasi o'z maqsadiga erishish yo'lida har qanday qurbonlik qilishga, eng nomaqbul xatti-harakatlarga tayyor bo'lgan xudbin, beadab shaxs sifatida namoyon bo'ladi [15].

Yuqorida keltirilgan muammolarni barataraf etish asosida yoshlarning tarbiyalash ayni paytda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.

Bu muammolarni yechishda oila, ommaviy axborot vositalari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi.

To'g'ri, ular uchun global internet va televideniya bilan raqobatlashish tobora qiyinlashib bormoqda. Yoshlar bosma nashrlarni o'qishni to'xtatdilar, ular uchun elektron ommaviy axborot vositalaridan o'qish qulayroq. Endi o'qish va tahlil qilish emas, balki siqilgan shaklda tayyor matnlarni olish osonroq. Bularning barchasi yoshlarning ongiga ta'sir o'tkazish imkonini beradi, bu esa pirovard yoshlarning ijtimoiylashuviga va globallashuv ta'siri ostida shakllangan global makonning bo'lajak rezidentini tarbiyalashga yordam beradi [16].

Ushbu masalalar bo'yicha, D.S.Davronova izlanishlar olib borgan bo'lib, uning tadqiqotida globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rgangan. Uning bildirishicha, globallashuvning ijobiy tomonlari quyidagilar: ijtimoiy hayot rivojlanishi sur'atlarini tezlashtiradi; iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi; ijtimoiy hayot imkoniyatlarini oshiradi; siyosiy hamkorlik oshadi; axborot kommunikatsiya tizimi rivojlanadi; ommaviy axborot vositalarining ta'siri oshadi; turli xalqlar hayot tarzi, madaniyati o'zaro aloqalarini boyitadi; muammolarni birgalikda yechishning imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Globallashuvning salbiy oqibatlarini esa quyidagilar: global hayotdagi o'zgarishlar va yutuqlardan yovuz maqsadlarda foydalanishga bo'lgan urinish xolatlari; ma'naviy tahdidlarning kuchayishi; axborot xurujlari; ommaviy madaniyat va uning ko'rinishlari; milliy madaniy meros va qadriyatlarni hisobga olmaslik, demokratiya modellarining xilma-xilligini inkor etishga urinishlar; mafkuraviy kurashning kuchayishi.

Globallashuv sayyoramizdagi ko'plab insoniyatlarga foyda keltiradi, ammo bu ko'plab muammolarni keltirib chiqarishini unutmashimiz kerak. Har qanday davlat uchun eng muhim muammo – bu fuqaro va Vatan himoyachisini tarbiyalashdir. Xavfsizligimiz va butun davlatimiz

unda istiqomat qilayotgan insonlarga, eng avvalo, oilaga bog'liq. Oila davlatimizning poydevorini tashkil qiladi. Qanday oilamiz bo'lsa, shunday insonni tarbiyalaymiz.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, globallashuv sharoitida yoshlarimizning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy hayotimizning asosiga aylanmoqda. Bu borada jamiyatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi milliy qadriyat va an'alarimiz asosida yoshlarni tarbiyalash tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasida jamiyatning har bir a'zosi o'z mas'uliyatini oshirishga zaruriyati mavjud. Chunki, globallashuv sharoitida yoshlarning qalbi, ongi, tafakkuri sog'lom g'oyalar asosida shakllanishi uchun har bir shaxs mas'uldir. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganligi har bir ota-ona, mahalla ahli, o'qituvchipedagogning e'tiborida bo'lishi zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buning uchun, ayniqsa mahalla (qishloq) fuqarolarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchilari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Aksariyat yoshlarning tarbiyasi oiladan, qolaversa, u tug'ilib o'sgan mahalladan boshlanadi. Shunday ekan, mazkur masalalarga nihoyatda jiddiy va e'tibor bilan yondashish muhim sanaladi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib sohaga oid ilmiy-metodik

manbalarining tahliliga ko'ra, globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi: yosh avlodni global tarmoqdan foydalanish madaniyatini oshirish; yosh avlodni media madaniyatini va mediasavodxonligini rivojlantirish; yosh avlodni badiiy adabiyotlarni o'qishga undash mexanizmlarini ishlab chiqish; yosh avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari faoliyatini birlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish; yosh avlodni tarbiyalashda qadimiy allomalarning qarashlaridan foydalanish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish;

"Tarbiya" fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni

pedagogik muammolarini o'rganish va bartaraf etish; "Tarbiya" fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni pedagogik shartlarini ishlab chiqish; "Tarbiya" fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni didaktik imkoniyatlarini o'rganish va undan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish.

Xulosa. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan muammolarni yechish asosida, globallashuv sharoitida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, global tarmoqning imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishga, fanlarni samarali o'zlashtirish asosida yutuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

- 1.Мавлонов Ў.М. Глобаллашув шароитида ёшларни мафкуравий тахдидлардан ҳимоя қилиш – давр талаби // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784. – В. 794797.
- 2.Глазатова Т.С. современные тенденции развития права в условиях глобализации // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва. 2015. – 24 с.
- 3.Мелконян А.А. Духовно-нравственное воспитание студентов в условиях глобализации и межкультурной коммуникации // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2015. – 26 с.

4. Пузанов А.П. Педагогический потенциал этики свободы и творчества в философии образования // Автореферат на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Елец, 2013. – 24 с.
5. Коняева И.М. Философско-педагогические идеи И. А. Ильина в современном контексте духовно-нравственного воспитания // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2002. – 26 с.
6. Гараева М.В. формирование межкультурной компетенции профильных специалистов в современных российских вузах // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата социологических наук. - Ростов-на-Дону, 2006. – 24.
7. Гараева Л.М. Научная и педагогическая деятельность русских в маньчжурии в конце XIX - первой половине XX века // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Владивосток, 2009. – 27 с.
8. Бокова Н.В., Симонович Н.Н., Багрецов Д.Н., Симонович Г.Н. Воспитание молодежи в эпоху глобализации: психологические особенности // Аграрное образование и наука. 2017. № 3. http://aon.urgau.ru/images/2017/03/04_03_2017.pdf
9. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Принятие решений по управлению организацией в период кризиса: социально-психологические аспекты // Аудит и финансовый анализ. 2015. – № 4. – С. 308-311.
10. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Экономическая и социально-психологическая безопасность регионов российской федерации // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. № 8. С. 40–44.
11. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Конкурентоспособность предприятия в условиях глобализации общества: влияние корпоративной культуры // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. № 11. С. 39–44.
12. Давронова Д.С. Оилада ёшларнинг маънавий тарбияси ва глобаллашув даври // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №3) ISSN 2181-1709 (P). – В. 146-153.
13. Симонович Н.Е. Социально-психологические особенности студенческой молодежи // Обучение и развитие: современная теория и практика: материалы XVI международных чтений памяти Л. С. Выготского. – М., 2015. – С. 592–594.
14. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Экономическая и социально – психологическая безопасность предприятия // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2014. – № 5. – С. 30-34.
15. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Инновационные методы исследования национальной безопасности // Казанский социальногуманитарный вестник. 2012. – № 3-4. – С. 9-10.
16. Киселева И.А., Симонович Н.Е. Инновационные методы принятия решений в условиях рисков: психологические аспекты // Аграрное образование и наука. 2016. – № 2. – С. 35.